

Mo'tabar siymoning samoviy olami

Uljon Boboqulova¹

Abstrakt

Ona siymosi har bir adib ijodiga alohida bir mehr, chinakam ehtirom hosilasi sifatida kirib keladi. Bu ehtirom undagi beqiyos fazilatlar va xislatlarga bo'lgan maslak bilan ifodalanadi. "Ona haqida kimlar nima demagan. Dunyoda Oripov biror bir shoir yoki adib bo'lmasinki, ona haqida qo'shiq to'qimagan, kuylamagan bo'lsa. Ona bor, olam bor; ona bor, odam bor; ona bor, Vatan bor, deyishadi. Chindan ham ona kabi tabarruk va aziz, ona kabi muqaddas va mehridaryo, ona kabi mard va jasur, ona kabi hokisor va kechirimli inson olamda topilmasa kerak. Shundan bo'lsa ajab emaski, ona mavzusi ijodkor uchun navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbayidir", -degan edi adabiyotshunos olim S.Mirvaliyev ona qiyofasi to'g'risidagi mulohazalarida. Ushbu maqola ona obrazining lirik va irfoniy talqin muammosini shoir Abdulla Oripov she'riyatida misolida o'rganishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: *Abdulla Oripov, poetik obraz va poetik talqin, ona obrazi, kechinma, irfoniy qarash, paranormal, ilohiy ruh.*

Kirish

Darhaqiqat, hamma-hammasi onadan boshlanadi. Ularda mehribonlik, xushfe'llik, o'zgalar dardini his qilish va kechirimlilikning cheksiz manbayi mavjud. Onalar – zamin tayanchi. Ularning mehr shavqati, hayotsevarligi, xolisona yordamga shoshilishi odamzod naslini yaratadi, ko'paytiradi va mustahkamlaydi. Ona har zamonda va makonda ona bo'lib qolaveradi. Shoir Abdulla Oripov ijodida eng ko'p qo'llangan so'zlardan biri bu – ona so'zidir. Filologiya fanlari doktori Adiba Davlatova o'zining Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan dissertatsiyasida Ona obrazi va so'zining 1092 holatda, go'zal va go'zallik tushunchasi 137 marotaba, hasad 74, hasadgo'y obrazi 23 marta, hayot tushunchasi 389, iblis so'zi 52, shayton esa 87 holatda qalamga olinganligi haqida yozib, mana shu kategoriyalar asosida tasniflanganida shoir qadrlagan eng oliy tuyg'u

¹ Boboqulova S. Uljon- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

ORCID ID:0009-0005-9072-2748

Iqtibos uchun: Boboqulova U.S. 2024. "Lirikada obraz tasnifi va talqin". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 59-67.

Ona ekani, keyingi o'rinda hayotni sevgani, qadrlagani, hayotsevarlik xususiyatlari ekani ma'lum bo'ladi. Shu ma'noda ayta olamizki, shoir ijodidagi bosh obrazlardan biri ona obrazidir. Shoir she'rlarida ona oq sut berib o'stirgan mo'tabar siymo, munis va mo'tabar zot, nozik xilqat, ilohiy bir samovat olami sifatida suvratlanadi.

Har bir yosh havaskor shoirlar yozadigan mavzulari barchamizga ma'lum. Vatan, tabiat, ota, ona, va hakazolar... Bular esa doimo tayyor tuyg'ular. Lekin mana shu tuyg'ularning taqdiri-qismati his qilinish va ifodalanish darajasiga bog'liq. A.Oripovning onaga bag'ishlangan har bir she'rida mana shu his va ifodaning hayotiyliigi va mukammalligini ko'rishimiz mumkin. Shoirning onaga bag'ishlangan ilk she'rlaridayoq bu holatga guvoh bo'lishimiz mumkin.

*Tunlari uyqusiz, murg'ak boshimni
Allalab ulg'aytgan sensan, onajon!
Ilk boq yurganimda qo'limdan tutib,
Shodlik chamaniga eltgan mehribon.
Yoshligim nur bo'lib qo'ndi sochingga,
Mana yuzlaringni qopladi ajin.
Ona, mehr to'la boqqan ko'zingda
Baxtim sevinch bo'lib balqmaganmikin [Oripov 2021. 156].*

“Onamga” nomli she'ri endi she'riyat olamiga kirib kelgan yosh shoirning onaga bo'lgan hurmat, minnatdorchilik hissi ifodasidir. Ha, tunlari bedor farzandi boshiga parvona bo'ladigan yagona zot bu-ona. Onaning sochiga tushgan har tola oq-bu farzand bilan, uning ga'm-u hasrati bilan hamohang. Hayot guli bo'lmish farzandning ilk qadamlari ham, ilk aytgan so'zlari ham ona bilan bog'liq. Farzand ulg'ayar ekan uning yoshligi ortda qolgan emas, go'yo nur bo'lib onaning sochlariga abadiy qo'ngan. Yuzlaridagi har bir ajinda farzandning holi-ahvoli namoyon. Faqat ko'zlar o'zgarmaydi. Farzand necha yoshda bo'lsa ham, bu mehr mavjlanib turaveradi. Chunki ona-bu mehr degani. Birgina “Ona” degan so'zni eshitishimiz bilan sergak tortamiz, qalbimizga nur va mehr inadi.

Yozuvchi O'Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida “Noma'lum askar Kimsan Husanov hikoyasi” nomli kichkina hikoyacha bor. Unda asira ayolning qizalog'i uchun yashashga intilishi, o'zida mislsiz kuch topa olgan ona jasorati hikoya qilinadi. Nemis harbiylari asirlar ustidan tajriba o'tkazishar ekan, roppa-rosa o'ttiz besh daqidaga bardosh bergani uchun kashf etishgan og'u dorisining kuchidan benihoya sevinishadi. Vaholanki, onaning farzandiga bo'lgan adoqsiz muhabbati nemislarning fan-texnikasidan kuchli

ekanligini ular qayerdan ham bilishsin?! Hisob-kitobga usta nemislar, "madaniyatli", "bilimdon" fashistlar bir narsani o'ylamasdi. Ayolni shuncha azoblarga bardosh berishiga undagan kuch ular yaratgan ukol emas, aksincha, onaning ko'z o'ngida turgan qizchasi. Asira ayol bolasidan umid uzolmayapti, o'lolmayapti. Ona farzand uchun yashaydi. Barcha orzu-umidlari, quvonch-shodliklari farzandi bilan tutash. Shoir Abdulla Oripov ham qalam ulug'lashi kerak bo'lgan eng aziz so'z- bu Ona deb biladi.

*Orzu harorati oq suting bilan,
Shodlik, quvonch bo'lib kirsin yurakka.
Baxtliman, onajon, qo'lga qalam olib,
Seni ulug'lash-la yetsam tilakka.*

Farzandga eng ezgu xislatlar ona suti va ona tili orqali singadi. Ona sabog'i yuzlab yaxshi o'qituvchilar ta'lim-tarbiyasidan ustun, farzandi kasal bo'lib qolganida onaning mehri yuzlab yaxshi shifokorlarning muolajalaridan ko'proq malham bo'ladi. Ona - eng yaxshi tabib. Afsuski, vaqt ziqligini, turmush tashvishi va ish ko'pligini bahona qilib biz onalarimizga maktub yozmaymiz, kasal bo'lib qolsa, uchib yetib bormaymiz, tug'ilgan kunlarida gullar berib, quchoqlab tabriklaymiz, uni shunday kunda yolg'iz qoldiramiz. Hatto ikki enlik tabrik ham jo'natmaymiz. Shoir Abdulla Oripov onasi vafotidan oldin yozgan "Maktub" nomli she'ri yuqoridagi fikrlarimizning poetik talqinidir. Balki shoir armonlarining yoki shoir sezimlarining badiiy ifodasidir.

*Xat yozmadim,
Xabar qilmadim,
Borolmadim, solib galga-gal.
Qanday ekan onam, bilmadim,
Yo'llarimga turgandir mahtal.
Xat yozarmi, o'g'lim, deb, zora
U-ku meni turibdi kutib.
Men-chi, noshud, bo'lib ovora
Avlodlarga yozaman maktub.*

Yoxud:

*Shodmon yursam, mening yodimga
Sen tushmaysan rostdan, onajon.
Onam, ranjimagil xatimdan,
Men rostini yozdim, shod damim
Sen tushmaysan aslo esimga [Орипов 2000. 104].*

Tabiiyki, shoir bu maktubni onasiga jo'natish uchun yozmagan. *"Shodmon yursam, mening yodimga Sen tushmaysan rostdan, onajon"* – ijodkor ko'nglidan kechgan tuyg'u hech bir bo'yoqsiz, samimiy va haqqoniy ifodalangan bu satrlarda. Ushbu misralar tuyg'uning rostligi va samimiyati bilan ham ta'sirli. "Aslida buni buyuk iqrar desak ham, buyuk o'kinch desak ham bo'ladi, – deb yozadi Uzoq Jo'raqulov. – Xalq ichida "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada" degan bir maqol yuradi. U ming yillik tajribalar mahsuli. Zamirida ota-onaning dardi, zori mujassam... Shoir ajdodlari iqrar eta olmagan haqiqatni yuqoridagi uch misrada iqrar etadiki, haqiqiy she'rning, iste'dodning (mahoratning emas) belgisi ham aslida shu bo'lsa kerak" [Жўрақулов 2006.149].

Aslida, ona biror asar mavzusi bo'lishi mumkin emas, zarur jihatlarni o'rganish bilan cheklanadigan. Ona-bu fikr-u xayolda yashaydigan, uning quvonch tashvishlariga sherik bo'ladigan, hamisha mehr-u muhabbat ko'rsatadigan ulug' zot. Yuqorida keltirilgan satrlar haqiqati shundaki, ba'zan o'z qobig'imizga o'ralib, o'z onamizni unutib qo'yamiz. Bu kabi afsuslar haqida nafaqat A.Oripov, balki jahondagi ko'plab shoirlar ham kuyinib yozishgan. Rus adabiyoti vakili Nekrasovning Ona atalmish buyuk tuyg'u haqida shunday satrlari bor.

*Ona- buyuk tuyg'u, qalbning mahzani,
To tirik ekanmiz, dilda saqlaymiz.
Sevamiz otani, singil, zavjani,
G'amli kun onani mayus yo'qlaymiz.*

Ammo ona hech qachon farzandini unutmaydi. Garchi farzandi tomonidan unitilgan bo'lsa ham. Bu xislat tabiat tomonidan faqat onagagina berilgandir. Ona taqdirning har qanday zarbalariga bardosh beradigan, mardlik, qahramonlikka qodir zotdir. Yer yuzida faqat onalargina hayotni davom ettirish, farzand ko'rish, meni, seni, uni ulg'aytirish, oq yuvib-oq tarash, tarbiyalash uchun qismatning barcha sinovlarini engib o'tadilar, taqdir zarbalariga ko'ksini qalqon qiladilar. Ona mehrining poyonsizligi, hayotbaxsh muhabbatining qudrati umuminsoniy qadriyatdir. Onaning bolalarga, farzandlarga muhabbati shunchaki oddiy muhabbat emas, balki tom ma'nodagi fidoyi muhabbatdir. Ona farzandlari uchun har qanday mushkulotni bo'yniga olishga, hamisha farzandlari uchun balogardon bo'lishga, hatto shirin jonidan ham kechishga tayyor. Shoir she'riyatida onaning fidoyiligi, jafokashligi, farzandi uchun suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashashi kabi insonni bezovchi fazilatlar yorqin lavhalarda o'z ifodasini topgan.

Ona, avvalo, yaratuvchanligi bilan ulug'lanadi, sharaflanadi, e'zozlanadi. O'tkir Hoshimov o'zining "Ayol" nomli maqolasida onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan obrazli fikrlari fikrimizning dalilidir. "Ona mehrini to'sadigan chegara yo'q. Ehtimol, allaning qudrati ham shundandir. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona-Vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, ona-Yer degan iboraning sababi ham shundadir" [Хошимов.1984.122]. Ha, onaning yaratuvchanlik qobiliyatining chegarasi yo'q. Ona ana shu xislati bois ham payg'ambarlarni dunyoga keltirgan buyuk bir zotdir. Professor Nurboy Jabborov "Badoye ul-vasat"dagi "O'g'ulg'a ona haqqi otadin ko'proq ekani bobidaki, durg'a daryo tarbiyati bulutdin ortug'roqdur", deya sarlavha qo'yilgan 12-qit'a haqida mulohaza yuritarkan: "Ana shu sarlavhaning o'zidayoq hayot haqiqatining teran mantig'i barobarida barcha ham birday ilg'ayvermaydigan fasohat va balog'at ifodasi kuzatiladi. Chindan, hazrat Navoiyning tafakkur va taxayyul quvvati shu qadar yuksakki, ona vafida hech bir ijodkorning xayoliga kelishi mumkin bo'lmagan nuqtalarni topadi, ularga tutilmagan badiiy libos kiydiradi, hayratlanarli poetik xulosalar chiqaradi,-deya ta'kidlaydi hamda onaning yaratuvchanlik xususiyati to'g'risida qat'iy xulosalarini beradi. – Iso Masih va Bibi Maryam qismati bunga qiyoski, agar Haq taolo iroda etsa, O'g'il otasiz ham tug'ilishi mumkin, lekin onasiz dunyoga kelishi mumkin emas"[Jabborov 2021.160]

Onalar haqida gap ketganda shoir Abdulla Oripov muqaddas Haj safarida Makkaning ulug' bir shayxi amri ma'rufida eshitgan gapini eslab, shunday deydi: "Ayo, ahli muslim, sizga ikki yo'l ko'rsatilgandir: sajda qiling, Allohga va yana Allohga. Sajdaga yana bir yo'l bordir: u esa onaga va faqat Onaga. Ayo, ahli muslim! Rasuli akramning o'gitlarini takror qilamizki, shul ikki xilqatdan tashqari hech bir mavjudod sajda loyiq emas. Payg'ambarlarimizga, padari buzruvorimizga ham sajda qilinmaydi, ular ziyorat qilinadi". Mana Onaga berilgan baho" [Орипов 2010.208]. Darhaqiqat, muqaddas kitoblarimizda, hadislarimizda onaning maqomi yuksak ekanligini ko'rishimiz mumkin. Hazrat Navoy o'zining "Arba'in" (Qirq hadis) nomli risolasida "Jannat onalar oyog'i ostidadur" hadisini sharhlab quyidagi ruboiyni keltiradi.

Onalarning oyog'i ostidadur

Ravzai jannatu jinon bog'i.

Ravza bog'i visolin istar esang,

Bo'l onaning oyog'i tufrog'i [Навоий 2000. 7].

Abdulla Oripov asarlarida onalar maqomining ilohiy ulug'ligi go'zal kartinalarda chizilgan. Onalar jannatda bo'lsa ham nedandir bezovta. Bu bezovtalikka farzand qismati bilan bog'langan ichki sezim sabab. Aslida onalarning jannatga dohilligi-ularning o'z jonini o'ylamasdan farzand uchun doimiy bezovta yashaganligidan emasmi?! Zotan, Alloh har bir jonzotga o'z jonini o'ylash tabiiy instinkini ato etgan. Onaning onaligi, jannatga doxilligi shundaki, ana shu tabiiy instinkdan ona yuksakroqda turadi. Farzandlarining diydorisiz hatto jannat ham onalar uchun qadrsiz, rangsiz va keraksiz makon. Shoirning "Jannatga yo'l" dramatik dostonidagi onaning quyidagi so'zlari fikrimizning dalilidir.

*Nima? Nima? Chaqir uni qaytaring zinhor,
Oh, jannating poymol o'lsin, boshimga yetdi!* [Орипов 356-359]

Onaning jannati – farzandining baxt-u iqbolida, shodligi-quvonchida, sog'ligi, osoyishtaligi–barcha-barcha borlig'ida farzand mujassam.

Shoir Abdulla Oripov she'riyatida oq sut berib o'stirgan ona obrazi lirik ifodada epik ko'lam mazmun-mohiyatini aks ettira olgan. Xususan, yuqoridagi fikrlarimizning mantiqiy davomi sifatida shoirning quyidagi she'rini ham keltirish mumkin.

*Kimdir savol berdi: - Aytgil, Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko'p yaxshilik aylay, o'zing ayt,
Ota-onamgami yoxud bolamga?*

Rasul javob qildi: - Tingla, birodar,

*Gapimni bir bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.
Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq .
Rostdan ona erur qiblai olam.*

Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq

Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham [Орипов 2000, 204].

Musoviya ibn Hayyida (roziyallohu anhu) aytdilar: "Rasulullohdan: «Ey Rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?» deb so'radim. "Onangga", – dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: "Onangga", - deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga",– dedilar" [Бухорий 2004. 13]. Shoirning Haj

safari chog'ida yuqorida keltirilgan hadisi sharif asosida yozilgan yuqoridagi she'ri onaning naqadar buyukligi hamda uning ilohiylikka daxldor ekanligining iqroridir.

Yoxud, shoirning "Haj daftari" turkumidan o'rin olgan "Ona" nomli she'rini ham yuqoridagi g'oyaviy maqsadning mantiqiy davomi, kulminatsiyasi deyish mumkin.

*Ka'ba qopqasida turgan ey, posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin*[Орипов 2000. 189].

Dunyoning qaysi burchagiga bormang, ona mo'tabar, ona aziz. Onaga berilgan ta'rif-tavsiflar ifodasi xilma-xil bo'lishi mumkin ammo mazmun-mohiyati bitta. Ayollar ko'p, lekin Ona-yagona. Onalik maqomi barcha nomlardan, shonlardan ustun turadi. Shoir A.Oripovning ona obrazidagi irfoniylarini qarashlarini qardosh xalqlarimiz shoirlaridan biri Rasul Hamzatov she'riyatida ham ko'rishimiz mumkin. Avar shoiri "Onalarni asrang" turkum she'rlardan tashkil topgan quyidagi baytlarda onaning naqadar ulug'vor hamda ilohiyotga daxldor ekanligini ta'kidlaydi.

*Qo'llarimda Qur'on! Misli yonar cho'g',
Imomlar ham uni ushlab tushgan cho'k.
Ular der:*

"Allohdan boshqa iloh yo'q".

Men deyman:

"Onamdan boshqa ona yo'q" [Hamzatov 2006. 68].

Musulmon sifatida insonlarga Alloh bergan ilohiy ruh borligini bilamiz. Aynan shu ruhiy komponent biz ko'ra olmaydiganlarimizni ko'rish imkoniyatini berish uchun makon va zamon tashqarisiga chiqib kela oladi. Biz ilohiy mo'jizalarga ishonamiz va bu mo'jizalar har qanday paranormal (lotincha "tashqarida bo'lgan" degan ma'noni anglatadi. etimologik ma'noda "normal chegaradan tashqarida bo'lgan holat") tarzda bo'lsa ham. Ona vujudida ham ana shunday ilohiy ruh borki, biz ko'ra olmaydiganlarimizni ko'ra oladi, his qila olmaydigan jihatlarimizni his qila oladi va bunda hech qanday makon va zamon ahamiyat kasb qilmaydi. Shuning uchun ham bizni onani ilohiylikka daxldor deb bilish va ona obraziga esa irfoniylar ko'z bilan qarashga undaydi.

Xulosa

Shoir she'riyatidagi ona obrazi shunchaki boshqa obrazlar

qatorida turadigan, adib avtobiografiyasiga aloqasi bo'lsa ham, ayni bir shaxsning onasigina gavdalantirilgan obraz emas. Shoir she'rlarida irqi, tili dini millatidan qat'iy nazar ona bari bir ona sifatida ulug'lanadi. Ona obrazida ma'lum milliy xususiyatlar, individual jihatlar, o'zbekona ruh ufurib tursa-da, ma'lum ma'noda umumbashariy timsol sanaladi. Bunday obrazlarda dunyodagi barcha xalqlarga tanish va ularni hayratlantira oladigan ona qiyofasi gavdalanib turadi. "Ilk xayrlashuv", "Onamga xat", "Millat" she'rlaridagi ona qiyofasi shunday obrazlar sirasiga kiradi va tadqiqotlar olib borish uchun dolzarb mavzu bo'la oladi.

Umuman, oq sut berib o'stirgan ona obrazi Abdulla Oripov she'riyatida alohida o'rin tutuvchi badiiy hodisadir. Bu mavzudagi turkum she'rlarida shoir ona obrazini ilohiy tuyg'u va mukammal badiiyat uyg'unligida suvratlantiradi. Ushbu mavzu talqiniga bag'ishlangan she'rlar ijodkorning badiiy-estetik idealini ifoda etgani jihatidan ham qimmatlidir.

Dunyoning qaysi burchagiga bormang ona mo'tabar, ona aziz. Onaga berilgan ta'rif-tavsiflar ifodasi xilma-xil bo'lishi mumkin ammo mazmun-mohiyati bitta. Ayollar ko'p, lekin Ona-yagona. Onalik maqomi barcha nomlardan, shonlardan ustun turadi. Shoir A.Oripovning ona obraziga nisbatan irfoniy qarashlari bevosita o'zining hayotiy tajribalarining badiiy ifodasidir.

Adabiyotlar

- Abdulla, Oripov . 2021. Shoirning tug'ilishi. Toshkent: Adabiyot.
- Абдулла, Орипов 2000. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Тошкент. Адабиёт ва санъат.
- Абдулла, Орипов. 2000.Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Абдулла,Орипов. 2010. Куёш бекати. Олтинчи жилд. Тошкент: Шарқ.
- Adiba, Davlatova. 2022. "Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji" Filol.fan.dok.diss.
- Жабборов, Нурбой. 2021. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Тошкент: Адабиёт.
- Жўрақулов У. 2006. Худудсиз жилва. Тошкент: Фан, 2006.
- Имом ал-Бухорий. 2004. Ал-адаб ал-Муфрад. Тошкент Фан.
- Навоий Алишер. 2000. Арбаъин. (нашрга тайёрдовчи: Фаниева С.) Тошкент, Фан.
- Rasul, Hamzatov. 2016. Ayollar ko'p, Ona-yagona. Toshkent, "DAVR PRESS" NMU.
- Собир, Мирвалиев . 1982. Она ҳақида қўшиқ. Тошкент.
- Ҳошимов Ў. Аёл. 1984. Оқ камалак. Тошкент, Адабиёт ва санъат.
- Жабборов, Н. (2022). Поэтический синтез традиций Алишера Навои в поэзии Абдуллы Орипова. in Library, 22(1), 112-125.

The heavenly world of a dignified figure

Uljon Bobokulova¹

Abstract

The figure of the mother enters the work of every writer as a product of special love and true respect. This respect is expressed by admiration for his incomparable qualities and qualities. «Who didn't say what about the mother? Oripov is a poet or a writer in the world who has not written or sung a song about his mother. There is a mother, there is a universe; there is a mother, there is a person; they say there is a mother, there is a country. Indeed, there is no one in the world who is as blessed and dear as a mother, as holy and kind as a mother, as brave and brave as a mother, as humble and forgiving as a mother. Therefore, it is not surprising that the theme of the mother is a source of inspiration for the creator,» S. Mirvaliyev, a literary scholar, said in his comments on the image of the mother. This article aims to study the problem of lyrical and mystical interpretation of the image of the mother in the example of the poet Abdulla Oripov's poetry.

Key words: *Abdulla Oripov, poetic image and poetic interpretation, mother image, experience, mystical vision, paranormal, divine spirit.*

References

- Abdulla, Oripov . 2021. Shoirning tug'ilishi. Toshkent, Adabiyot.
- Abdulla, Oripov 2000. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. Toshkent, Adabiyot va san'at.
- Abdulla, Oripov. 2000. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. Toshkent, Adabiyot va san'at.
- Abdulla, Oripov. 2010. Quyosh bekati. Oltinchi jild. Toshkent, Sharq.
- Jabborov, Nurboy. 2021. Maoniy ahlining sohibqironi. Toshkent, Adabiyot.
- Jo'raqulov, U. 2006. Hududsiz jilva. Toshkent, Fan. 2006.
- Imom al-Buxoriy. 2004. Al-adab al-Mufrad. Toshkent Fan.
- Navoiy Alisher. 2000. Arba'in. (Nashrga tayyorlovchi: G'aniyeva S.). Toshkent, Fan.
- Rasul, Hamzatov. 2016. Ayollar ko'p, Ona-yagona. Toshkent, "DAVR PRESS" NMU.
- Sobir, Mirvaliyev. 1982. Ona haqida qo'shiq. Toshkent.
- Hoshimov, O'. Ayol. 1984. Oq kamalak. Toshkent, Adabiyot va san'at.
- Жабборов, Н. (2022). Поэтический синтез традиций Алишера Навои в поэзии Абдуллы Орипова. in Library, 22(1), 112-125.

¹ Bobokulova S. Uljon – is a doctoral student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

ORCID ID:0009-0005-9072-2748

For citation: Bobokulova U.S. 2024. "The heavenly world of a dignified figure". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(2): 59-67.